

YANGI XIZMAT KO'RSATISH TURLARINI KENGAYTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQUISH

Djurayeva Dilnoza Davron qizi

Buxoro Davlat Universiteti i.f.f.d(Phd)

Rashidov Dilshod Sharof o'g'li

“Biznesni boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
talabasi

No‘monov Muxammadsodiq

“Logistika” ta’lim yo‘nalishi
talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada xizmatlar sohasida yangi xizmat turlarini kengaytirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida xizmatlar sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion omillar o'rganildi. Xalqaro innovatsion reytinglar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion infratuzilma rivojlanishining xizmatlar sektoriga ta'siri baholandi. Tahlillar natijasida innovatsion boshqaruv, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, klaster tizimlari va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining xizmatlar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslandi. Yangi innovatsion xizmatlarni yaratish, ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasini rivojlantirish hamda innovatsion ekotizimni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini oshirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Kalit so'zlar: innovatsion xizmatlar, xizmatlar sohasi, innovatsion boshqaruv, ilmiy ishlanmalar, klaster tizimi, innovatsion infratuzilma, xizmatlar samaradorligi, innovatsion iqtisodiyot.

Аннотация

В статье проанализирована эффективность инновационных подходов к расширению новых видов услуг в сфере сервиса. В ходе исследования изучены экономические, организационные и инновационные факторы, влияющие на развитие сферы услуг. Оценено влияние международных инновационных рейтингов, научно-исследовательской деятельности и развития инновационной инфраструктуры на сервисный сектор. Результаты анализа подтвердили значимость инновационного управления, внедрения научных разработок в практику, кластерных систем и механизмов государственной поддержки в повышении эффективности услуг. Также разработаны научно-практические рекомендации по созданию новых инновационных услуг, развитию научно-технической информационной базы и формированию инновационной экосистемы. Отмечено, что результаты исследования способствовали повышению конкурентоспособности сферы услуг и обеспечению регионального развития.

Ключевые слова: инновационные услуги, сфера услуг, инновационное

управление, научные разработки, кластерная система, инновационная инфраструктура, эффективность услуг, инновационная экономика.

Abstract

This article analyzed the effectiveness of innovative approaches in expanding new types of services within the service sector. The study examined economic, organizational, and innovative factors influencing service sector development. The impact of international innovation rankings, research activities, and innovation infrastructure development on the service industry was evaluated. The findings confirmed the importance of innovative management, implementation of scientific developments into practice, cluster systems, and state support mechanisms in improving service efficiency. Scientific and practical recommendations were also developed for creating innovative services, improving scientific and technical information systems, and forming an innovation ecosystem. The study emphasized that the obtained results contributed to strengthening service sector competitiveness and supporting regional development.

Keywords: innovative services, service sector, innovation management, scientific developments, cluster system, innovation infrastructure, service efficiency, innovation economy.

KIRISH

Xizmatlar sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini shakllantirish va investitsiya resurslarini keng jalb etishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu soha o‘zaro uzviy bog‘liq tarmoqlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, iqtisodiy faoliyatning murakkab va ko‘p qirrali tizimini ifodalaydi. Xizmatlar sohasi aholi farovonligini oshirish, jismoniy va ma‘naviy tiklanishni ta‘minlash, dam olish va bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, xizmatlar industriyasi aholi ehtiyojlarini qondirish, yangi taassurotlar va xizmat turlarini shakllantirish orqali iqtisodiyotda talab va taklif muvozanatini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan mazkur soha yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib, daromad keltirish salohiyati jihatidan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli xizmatlar sohasini ilmiy asosda rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik nuqtai nazaridan tashkilotning holati, uning faoliyati, raqobatbardoshlik shartlari va xizmat narxlari, ishchilarning bilim darajasi hamda ularni ishlash mahoratlari va kapital mablag‘larning yetarliligi orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda xizmatlar sohasini iqtisodiy o‘shishning strategik drayveriga aylantirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, 2025-2026-yillarda xizmatlar hajmini barqaror oshirish, uni diversifikatsiya qilish hamda aholi bandligini ta‘minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Davlat tomonidan pandemiyadan keyingi tiklanish davrida umumiy ovqatlanish, savdo, turizm va transport sohalari subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq va moliyaviy imtiyozlar bosqichma-bosqich davom ettirildi va takomillashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2025-yilda xizmatlar sohasida investitsiya faolligi sezilarli

darajada oshdi, yangi xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etildi va sohaning yalpi qo'shilgan qiymatida barqaror o'sish kuzatildi. Jumladan, xizmatlar sohasida minglab yangi loyihalar ishga tushirilib, ular orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirishga erishildi. Hududlar kesimida tahlillar xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda, xususan, Toshkent shahri va iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlarida xizmatlar infratuzilmasi jadal rivojlanib, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha ijobiy tendensiyalar shakllangan. Biroq, Jizzax, Navoiy, Xorazm va Qashqadaryo kabi hududlarda xizmat ko'rsatish sifati va qamrovi hali ham yetarli darajada emasligi saqlanib qolmoqda. Ushbu holat xizmatlar sohasini hududiy jihatdan mutanosib rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va zamonaviy xizmat turlarini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish va aholi bandligini oshirish maqsadida viloyat hokimlari zimmasiga tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda servis va xizmat ko'rsatish obyektlarida yangi doimiy ish o'rinlarini keng ko'lamda yaratish vazifasi yuklatildi. Jumladan, 2025-2026-yillar davrida mazkur sohada yaratiladigan ish o'rinlari sonini bosqichma-bosqich oshirish orqali yil yakuniga qadar yuqori natijalarga erishish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, shahar infratuzilmasidan samarali foydalanish xizmatlar sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Buxoro shahrida tadbirkorlik subyektlari tomonidan binolarning yuqori va pastki qavatlaridan samarali foydalanish orqali qo'shimcha xizmat ko'rsatish obyektlari, jumladan restoran va kafeteriyalar tashkil etilgani xizmatlar diversifikatsiyasining samarali namunasi hisoblanadi. Shahar markaziy ko'chalarida joylashgan davlat tashkilotlari binolarining birinchi qavatlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish uchun qo'shimcha zaxira sifatida baholanmoqda. Mazkur tajribani boshqa shaharlar va tuman markazlarida joriy etish orqali xizmatlar sohasini hududiy jihatdan mutanosib rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish imkoniyati mavjud.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarning yangi xizmat turlarini shakllantirishga ta'siri ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ilmiy-tadqiqot ishlarining qamrovi va samaradorligini oshirish, shu asosda yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish masalalari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Bu esa xizmatlar sohasida innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish va ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish va innovatsion xizmatlar turlarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar D.Archibudji, P.Druker, A.Rumyanseva, Dj.Forrester, B.Lundval, N.Mazur, R.Nelson, V.Ivanov, Y.Shumpeter, R.Fatxuddinov, N.Rozenberg A.Porshneva, K.Puznya, G.Mensh va boshqa xorijlik iqtisodchi

olimlarning¹ ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S.G‘ulomov, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, B.B.Berkinov, N.Q.Yo‘ldoshev, M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, Sh.I.Otajonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. ilmiy izlanishlar olib borganlar².

Bundan tashqari M.Pardayev, H.Musayev, I.Ochilov, N.Abdusalomova, B.Navruz-Zoda, O.Kim, A.Norchayev, B.Mirbabayev, S.Ro‘ziyev, N.Raximova, A.Saidov, B.Safarov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, B.To‘rayev, O.Xamidov kabi o‘zbek olimlarining ilmiy ishlari ham e‘tiborga loyiq bo‘lib, ular O‘zbekistonda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, takomillashtirish muammolari nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e‘tibor berishgan. Bunda hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish omillari, boshqarish masalalari o‘rganilgan³.

Ushbu ilmiy izlanishlar ilmiy-uslubiy manba bo‘lsa-da, hozirgi kunda xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, bunda innovatsion menejmentni joriy etish orqali innovatsion xizmat ko‘rsatish subyektlari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan, tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekt sifatida o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda xizmatlar sohasida yangi xizmat turlarini kengaytirishda innovatsion yondashuvlar samaradorligini baholash uchun tizimli va kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, innovatsion rivojlanish nazariyalari hamda xizmatlar sohasini boshqarish konsepsiyalari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullari qo‘llanilib, xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Mazkur usullar yordamida innovatsion xizmatlar yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ularning amaliy samaradorligi o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlarning innovatsion rivojlanish tajribasi, xususan Janubiy Koreya, Singapur, Shvetsiya, Finlyandiya va Germaniya innovatsion siyosati natijalari o‘zaro taqqoslandi. O‘zbekistonning Global innovatsion indeksdagi o‘rni va xizmatlar sohasidagi innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari xalqaro tendensiyalar bilan solishtirildi.

¹ Archibudgi D., Howells J., and Michie J. (Ed.) Innovation policy in a global economy. -Cambridge, 2019; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. -New York, NY.; Drucker P. Innovation and entrepreneurship: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55.;

² Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirish. -T.: “Innovatsion texnologiyalar”, 2018. → B.178;

³ Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari (monografiya) - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008;

Statistik tahlil usuli asosida xizmatlar sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, innovatsion loyihalar, klaster tizimlari, ilmiy ishlanmalar hamda investitsion faoliyat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqotda Innovatsion rivojlanish vazirligi, Jahon banki va xalqaro reyting agentliklari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida kuzatuv va ekspert baholash usullari yordamida xizmatlar sohasida innovatsion xizmat turlarini joriy etish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish hamda klaster tizimlari faoliyati o'rganildi. Olingan natijalarni tizimlashtirish va umumlashtirish asosida innovatsion xizmatlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida yangi xizmat turlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy ishlanmalarni shakllantirish jarayoni namoyon bo'lgan. O'tkazilgan tahlillar natijasida 2018–2023-yillar davomida ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani aniqlangan. Xususan, ushbu davr mobaynida 2 ta Qonun, 8 ta Prezident farmoni, 32 ta Prezident qarori, Vazirlar Mahkamasining 45 ta qarori hamda 12 ta farmoyishi tasdiqlangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar natijasida ilmiy-innovatsion faoliyatda raqobat muhiti, manfaatdorlik va institutsional mas'uliyat tizimi shakllangan.

Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish darajasini baholovchi Global innovatsion indeks reytingida O'zbekiston Respublikasining pozitsiyasi ham izchil yaxshilangan. Jumladan, 2022-yilda mamlakat avvalgi yilga nisbatan 4 pog'onaga yuqorilab, 132 davlat orasida 82-o'rinni egallagan. Shu bilan birga, 2015-yilga nisbatan O'zbekistonning reytingdagi o'rni 40 pog'onaga yaxshilangani kuzatilgan. 2023-yilda ham mamlakat ushbu natijani saqlab qolgan.

Tahlillar shuni ko'rsatganki, O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingiga ilk bor 2015-yilda kiritilgan bo'lib, o'sha davrda 141 davlat orasida 122-o'rinni egallagan edi. Keyingi yillarda innovatsion siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida 2021-yilda mamlakat 132 davlat orasida 86-o'ringa ko'tarilgan. Natijada O'zbekiston innovatsion rivojlanish yo'nalishida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

2022-yilda daromad darajasi bo'yicha tasniflangan davlatlar orasida O'zbekiston quyi o'rta daromadli 36 davlat ichida 10-o'rinni egallagan. Shu bilan birga, mamlakat ilk bor Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida innovatsion iqtisodiyotlar reytingida 3-o'rinni qayd etgan. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha Hindiston 1-o'rinda, Eron esa 2-o'rinda joylashgan.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida rejalashtirilgan 441 ta loyihadan 301 tasi bo'yicha amaliy ishlar boshlangan. Shuningdek, umumiy qiymati 959,1 mlrd so'mni tashkil etgan 53 ta loyiha to'liq yakunlangan.

2022–2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yangi ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish maqsadida 58 ta oliy ta'lim muassasasida umumiy qiymati 217,8 mlrd so'm bo'lgan 377 ta loyiha bo'yicha nazorat-reja grafiklari tasdiqlangan.

Mazkur loyihalar innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va ilmiy salohiyatni kuchaytirishga xizmat qilgan.

2022-yilda 16 ta yangi innovatsion spin-off korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu korxonalar doirasida qariyb 260 ta yangi ish o‘rni yaratilgan, 28 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan hamda 39 turdagi xizmatlar ko‘rsatila boshlangan.

Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlikni kengaytirib, xorijiy hamkorlar, xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan ilmiy-texnik aloqalarni mustahkamlagan. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga davlat buyurtmasi mexanizmi joriy etilgan.

Mazkur yo‘nalishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-sonli “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qilgan.

2021-yilda davlat buyurtmasi asosida umumiy qiymati 116,8 mlrd so‘m bo‘lgan 218 ta ilmiy loyiha moliyalashtirishga tavsiya etilgan. Bundan tashqari, 2022-yilda Germaniya, Turkiya, Rossiya va Belarus bilan hamkorlikda umumiy qiymati 6,9 mlrd so‘mlik 25 ta xalqaro qo‘shma ilmiy loyiha muvaffaqiyatli yakunlangan.

2021-yildan boshlab Turkiya, Xitoy va Hindiston bilan hamkorlikda umumiy qiymati 50,3 mlrd so‘m bo‘lgan 47 ta xalqaro qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlangan. Mazkur loyihalar ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion texnologiyalar transferini jadallashtirish hamda xalqaro ilmiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilgan.

1-jadval

Mavjud infratuzilmaviy, ilmiy-innovatsion salohiyatdan foydalangan holda klasterlar tomonidan innovatsion xizmat turlarini yaratish va joriy etish salohiyati¹

№	Klasterlar turlari	Soni	Biriktirilgan yer maydoni, ga	Yaratilishi taklif etilayotgan innovatsion xizmat turlari
1	Paxta-to‘qimachilik klasterlari	97	927 068	Yangi navni klasterlar bilan hamkorlikda patentlash va joriy etish mexanizmini tatbiq etish.
2	G‘allachilik klasterlari	77	148 310	a) Yuqori samarador biologik o‘g‘itlar va preparatlarni klasterlarga ilmiy-servis xizmatlari asosida yetkazib berish (har bir o‘simlik turi kesimida) va qo‘llash;
3	Meva-sabzavotchilik klasterlari	147	116 156	b) Yangi navlarni navdorlik standartlari talablariga muvofiq hamda hududiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos tarzda tanlash
4	Sholichilik klasterlari	16	8 060	v) Kasalliklardan himoya qilish bo‘yicha tahlil va sinov xizmatlarini ko‘rsatish.
5	Dorivor o‘simliklar klasterlari	8	1 406	a) Dorivor o‘simliklarni hudud va tuproq sharoitlariga mos agrotexnologiyasini yaratish; b) Yetishtirilgan dorivor o‘simliklarni klasterlar buyurtmalari asosida farmatsevtika kompaniyalarining talablari asosida chuqur qayta ishlovchi servis-kompaniyalari tarmog‘ini tashkil etish.

¹ Manbalar asosida muallif hisob kitoblari

Xizmatlar sohasida innovatsion tadbirkorlik faoliyati yuqori tavakkalchilik darajasi bilan tavsiflangan bo'lsa-da, yangi xizmat turining bozorda muvaffaqiyatli pozitsiyaga ega bo'lishi natijasida olinadigan iqtisodiy samaradorlik va daromad hajmi bir necha barobar ortishi mumkinligi aniqlangan. Shu sababli innovatsion xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish hamda xizmatlar sektori raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Mazkur yo'nalishni davlat tomonidan institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirmasdan turib samarali tashkil etish murakkab hisoblangan. Buning asosiy sababi yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq innovatsion biznes loyihalariga tadbirkorlik subyektlari tomonidan investitsion faollik yetarli darajada namoyon etilmaganligi bilan izohlangan.

Raqobatbardosh innovatsion xizmat turlarining bozorda barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelgan. Huquqiy jihatdan himoyalangan texnologiyalar asosida yaratilgan innovatsion xizmatlar nafaqat mulkiy manfaatlarni himoya qilishga, balki samarali marketing strategiyalarini qo'llash hamda bozorda ustun raqobat pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi innovatsion xizmat turlarini yaratishda mavjud ilmiy-texnik va tashkiliy salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganligi aniqlangan. Tadqiqot davomida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan klasterlarning innovatsion xizmatlarni yaratish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ularning innovatsion salohiyat darajasi baholangan (1-jadval).

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish jarayonida, avvalo, tashqi va ichki muhit omillarini kompleks tahlil qilish hamda shu asosda korxonaning innovatsion salohiyatini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan. Mazkur yondashuv innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish va xizmatlar bozorida barqaror raqobat ustunligini ta'minlash imkonini bergan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda mamlakat innovatsion tizimini tashkil etuvchi asosiy institutlar aniqlandi. Olimlarning jamiyatdagi mavqeyi oshirildi, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashda ijobiy natijalarga erishildi, yoshlarning innovatsion faoliyatda faol ishtiroki ta'minlandi, jahon tajribasiga asoslangan samarali va shaffof tarzda ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etildi. Shu bilan birga hozirgi kunda milliy innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini takomillashtirish hamda xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga katta ehtiyoj mavjud.

Xorijiy mutaxassislar innovatsiyaga yetaklovchi ijtimoiy, ekologik va barqaror, ya'ni zarar yetkazmaydigan tadbirkorlik omillariga e'tibor qaratishadi. Eng muhimi shundaki, bu innovatsiyalar ishlab chiqarish va ta'minot zanjiri orqali boshqa tashkilotlarga va mamlakatlarga tarqalmoqda. Yetakchi tashkilotlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, ularni utilizatsiya qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda

ekologiyaga va jamiyatga zarar yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratishadi. Masalan, texnika ishlab chiqarilsa unda energiya va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyolar tejamkorligini oshirishga e'tibor qaratiladi.

G'arbdagi tushunchalarga ko'ra biznes nafaqat daromad olish balki jamiyatdagi muammolarni, masalan, qashshoqlik, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi kabi muammolarni hal etish bilan ham shug'ullanishi lozim. Bu masalalarni hal etishda esa innovatsion g'oyalarning o'rnini juda muhimdir. Kelajakda tadbirkorlar muvaffaqiyatga erishish istagida bo'lsalar, aynan mana shu muammolarni yechishga qaratilgan innovatsion g'oyalarni tatbiq etishlari talab etiladi. O'zbekiston ham, shu tariqa, innovatsion ilg'or davlatlar safiga qo'shilish istagi bo'lsa, mamlakatda innovatsion tamoyillarni keng joriy etishi lozim bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sohasiga oid innovatsiyalarni bozorda joriy etish ushbu yo'nalishda chuqur yangi bilimlarni yaratishni talab etadi. Tadqiqot ishi shuni ko'rsatadiki, innovatsion xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi bilimlar asosida innovatsiyalar yaratish kadrlar tayyorlash jarayonidan tortib yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yaratishning o'zaro aloqadorligini ta'minlab berishi zarur. Bunda yangi bilimlar asosida innovatsion xizmatlar yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasini yaratish, doimiy yangilab borish va takomillashtirish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishni axborot bilan ta'minlash bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalarni tayyorlash maqsadga muvofiq.

Innovatsion xizmatlar yaratish sohalarida mavjud muammolarni va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni hal etish, uzoq istiqboldagi rejalarga erishish, vazirlikning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini rivojlantirish yuzasidan mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, qisqa muddatli prognozlashtirish, tadqiqotlarni hamda "Forsayt" (Foresight - futures studies) tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish o'zining tezkor samarasini beradi.

Bibliometrik tadqiqotlarni amalga oshirish, tadqiqotlar natijasida tahliliy materiallarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba asosida takliflarni tayyorlash hamda tadqiqot yo'nalishlarini to'g'ri belgilash asosida yangi xizmat turlarini yaratishga oid ilmiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ham ekotizimni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi innovatsion xizmat turlarini yaratish infratuzilmasi, tizimni boshqarish elementlari va funksiyalari, tartib va qoidalarni o'z ichiga olgan vositalar va jarayonlar majmuidan iborat bo'lishi lozim.

Innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi asosida mazkur jarayonlarni alohida model asosida tizimli ravishda tashkil etish esa uning samaradorligini belgilab beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank.
2. Archibudgi D., Howells J., and Michie J. (Ed.) Innovation policy in a global economy. -Cambridge, 2019; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. -New York, NY.;

Drucker P. Innovation and entrepreneurs: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55

3. Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirish. -T.: “Innovatsion texnologiyalar”, 2018.- B.178

4. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari (monografiya) - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008

5. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. -Т.: Академия, 2006. - С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. -С. 49

6. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс, 1982

7. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. - Спб.: Питер, 2001. - С. 41.
4 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. - М.: Книжный мир, 2000. - С. 185.
5 Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. - М.: ИНФРА-М, 2002. - С. 28.

8. Роль инновационного потенциала в развитии предприятий оборонно-промышленного комплекса. <http://elibrary.ru>

9. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. - Спб.: Питер, 2004. - С. 19.

10. Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. - С.: ИНФРА-М, 2009. - С.11. (С. 337).

11. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘l. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - B. 10. (144 b.)

12. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. - P.28. (P. 436.)

13. Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank. URL: <https://data.worldbank.org/indicator>.

14. Друккер П.Ф. Классические работы по менеджменту. Пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2008. - 220 с.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**